

# **UzAirPlus ballarini nafaqat tejash, balki xarid qilish ham mumkin**

**2024 8 Iyul**

Buning uchun [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytiga o'ting va "Mening bronlarim" funksiyasini tanlang. UzAirPlus shaxsiy kabinetingizga biriktirilgan pochta orqali tizimga ro'yxatdan o'ting va yangi oynada kataklarni to'ldiring. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng "Sodiqlik dasturi" funksiyasini tanlang, UzAirPlus kartangiz raqamini biriktiring va "Ballarni sotib olish" tugmasini bosing.

Siz har bir paket uchun 30 EUR to'lash sharti bilan 1000 balldan paketlarni xarid qilishingiz mumkin. Yil davomida siz 50 000 dan ortiq bo'lmagan (1000 balldan 50 ta paket) mukofot ballarini sotib olishingiz mumkin.

Agar UzAirPlus kartangiz bo'lmasa, hoziroq [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) saytida ro'yxatdan o'ting va 1000 ta qutlov ballariga ega bo'ling.